

INNOVATSION RIVOJLANISH SHAROITIDA SANOAT KORXONALARING RESURS TA'MINOTINI BOSHQARISH

Keulimjaye Baxtiyar Qonaqbayevich
Qoraqalpoq davlat universiteti

***Annotatsiya:** Hozirgi paytga kelib iqtisodiy shart-sharoitlarning o'zgarishi, ko'plab moliyaviy muammolarning yuzaga kelishi va bozordagi raqobatchilikning kuchayib borishi eng avvalo, texnologik taraqqiyoti boshqa iqtisodiyot tarmoqlariga nisbatan bir qadar yuqoriroq bo'ladigan sanoat korxonalaridagi strategik boshqaruv tizimiga katta ta'sir ko'rsatmoqda. Maqolada mamlakatimizning mintaqalarida sanoat korxonalarining innovatsion rivojlanishining resurs ta'minotini boshqarish jarayonida yuzaga kelatigan ayrim muammolarni barataraf etish yo'nalishlari o'rganilgan.*

***Kalit so'zlar:** Sanoat tarmog'i, sanoat korxonasi, innovatsiya, innovatsion rivojlantirish, innovatsion loyiha, ilmiy-texnik ishlanma, tijoratlashtirish mexanizmi, inventarizatsiya.*

MANAGEMENT OF THE RESOURCE SUPPLY OF INDUSTRIAL ENTERPRISES IN THE CONDITIONS OF INNOVATION DEVELOPMENT

Karakalpak State University

Keulimjaev Bakhtiyar Konakbeovich

***Abstract:** currently, changes in economic conditions, the emergence of many financial problems, and increased competition in the market have a great impact on the system of strategic management of industrial enterprises, the technological development of which is slightly higher than in other sectors of the economy. The article explores the directions for solving some problems that arise in the process of managing resource provision for the innovative development of industrial enterprises in the regions of our country.*

***Key words:** Production network, industrial enterprise, innovation, innovative development, innovative project, scientific and technical development, commercialization mechanism, inventory.*

Iqtisodiyotni globallashtirish sharoitida sanoat tarmog'ining samarali faoliyat ko'rsatishi innovatsiyalarning diffuziyasini, sanoat korxonalarini raqobatbardoshligining ortishini ko'zda tutib, bunga sanoat korxonalaridagi investitsion va innovatsion faoliyatning o'zaro muvozanatli holda rivojlanib borishi hisobiga erishish mumkindir. Bu borada mintaqa sanoati korxonalarini innovatsion rivojlantirish loyihalarini amalga oshirish jarayonlarini boshqarishga yangicha talablar yuzaga keladi. Shunday qilib, sanoat korxonalarini innovatsion

rivojlantirishning samarali tizimini shakllantirish muammosi hozirgi vaqtda alohida ahamiyatga ega bo'lib, bu muammoning hal etilishi sanoat tarmog'ida innovatsiyalarni generatsiyalash, takror hosil qilish va ulardan foydalanish orqali mamlakatimiz mintaqalarining ijtimoiy-iqtisodiy o'sish sur'atlarini oshirishga xizmat qiladi.

Innovatsion rivojlanish loyihalarini amalga oshirishning barcha bosqichlarida istalgan sanoat korxonasi uchun uning moliyaviy ta'minotini tashkil etish muhim masalalardan biri bo'lib hisoblanadi. Moliyalashtirish strategiyasi o'z ichiga mazkur innovatsion rivojlanish loyihasini qanday qilib moliyalashtirish to'g'risidagi axborotlarni olib, bunda innovatsion rivojlanish loyihasini amalga oshirish uchun zarur bo'ladigan moliyaviy mablag'lar miqdori, ularni olish manbalari, o'z mablag'lari va qarzga olingan mablag'lar nisbatining rejalashtirilgan qiymati, loyihaga yo'naltirilgan mablag'larni qoplash muddatlari, investorlar daromadining qiymati, davlat byudjetidan mablag'larni jalb qilish imkoniyatlari, ko'zda tutilmagan sarf-xarajatlarni qoplash uchun moliyaviy mablag'lar zahirasi kabilar belgilab olinadi.

Bizning amalga oshirgan o'rganish ishlarimiz natijalari ko'rsatdiki, rejalashtiriladigan sarf-xarajatlarni nafaqat xarajatlar moddalari bo'yicha, balki ularni potensial qoplash manbalari, shuningdek, innovatsion rivojlanish loyihasini yuzaga chiqarish davomida xarajatlarni amalga oshirish zarur bo'ladigan muddatlar bo'yicha ham alohida ko'rsatilgan holda jadval ko'rinishida tasvirlash maqsadga muvofiqdir (1-jadval).

Sanoat korxonasini innovatsion rivojlantirish loyihasini amalga oshirishda o'z-o'zini moliyalashtirish uning bankrotlikka uchrash tavakkalini pasaytiradi. O'z mablag'larini kiritish imkoniyati sanoat korxonasining yaxshigina moliyaviy holatga ega ekanligini, shu jumladan, korxonaning mana shunday imkoniyatga ega bo'lmagan boshqa korxonalarga nisbatan raqobatchilikda ustunlikka ham ega bo'lishini anglatadi.

Bundan tashqari, tadqiqotlarimiz ko'rsatadiki, sanoat korxonalarining ko'pchilik qismi hozirgi kunlarda pandemiya asoratlari hali butunlay yo'qolib

ketmaganligi natijasida o'z innovatsion rivojlanishlarini ta'minladigan loyihalarni amalga oshirishda o'z mablag'lari yetishmasligiga, shuningdek, kredit mablag'lari taqichlligiga ham duch kelmoqdadir.

Shularni hisobga olib, biz o'z tadqiqotimiz doirasida Qoraqalpog'iston Respublikasi sanoat korxonalarining innovatsion rivojlanishini ta'minlash jarayonlarida quyidagi takliflarni o'rinli deb hisoblaymiz:

- korxonalar tomonidan davlat fondlari va dasturlari doirasida mablag'larni jalb qilish imkoniyatidan foydalanish;

- mintaqadagi sanoat korxonalarining investitsion jozibadorligini (xususan, intellektual mulkni boshqarish hisobiga bu sanoat korxonalarining kapitallashuvini oshirish mexanizmi hisobiga) oshirish.

Bu holat mintaqada sanoat korxonalarining innovatsion rivojlanishi jarayonlarining jadallashishiga ma'lum bir darajada to'sqinlik qilib, buni bartaraf etishning samarali omili sifatida aynan sanoat korxonalarida innovatsion rivojlanishning resurs ta'minotini boshqarishning samarali metodlarini joriy qilish orqali mintaqa sanoati innovatsion rivojlanishini boshqarish tizimini takomillashtirish hisoblanadi.

Bunda biz sanoat korxonalarida ilmiy-texnik ishlanmalarni tijoratlashtirish mexanizmini taklif etamiz, bu mexanizmni amalga oshirishda nafaqat yangi mahsulotlarni ommaviy yoki seriyali tarzda ishlab chiqarishning maqsadga muvofiqliligini ko'rib chiqish bilan, balki sanoat korxonalarining o'zida jarayonli innovatsiyalarni "bittalab" sotish yoki uni qo'llash nuqtai-nazaridan ham innovatsiyalarning mahsulotli yoki jarayonli innovatsiyalarga ajratilishi hisobga olinadi. Sanoat korxonalarining innovatsion rivojlanishini amalga oshirishning mazkur mexanizmi sotish uchun innovatsion mahsulot (obyekt)ning yaratilishiga qaratiladi (1-rasm).

Bu mexanizmni amalga oshirish jarayonida dastlab sanoat korxonasining intellektual mulki obyektlarini ilmiy-texnik faoliyat natijalariga bo'lgan huquqlarni ro'yxatga olish bo'yicha tavsiyalarga mos ravishda inventarizatsiyadan o'tkazilishi, shuningdek, sanoat korxonasi ilmiy-texnik faoliyatining ilmiy-texnik,

huquqi va iqtisodiy tahlili o‘tkazilishi (2-jadval) lozim bo‘ladi. Buning uchun korxonada inventarizatsiyadan o‘tkazish bo‘yicha ishchi guruhni tashkil etish lozim bo‘lib, uning vazifalariga korxonada mos holdagi intellektual mulk obyektlarining paydo bo‘lishi yoki hisobdan chiqarilishini aks ettiruvchi huquq egasining huquqlarini tasdiqlovchi hujjatlar (patentlar va shu kabilar)ni, boshqa hujjatlar (patent tadqiqotlari haqida hisobot, ITTKI ni amalga oshirish va boshqa shu kabilar bo‘yicha hisobot hujjatlari)ni tahlil qilish kiritilishi lozimdir.

2-jadval

IMO ni inventarizatsiyadan o‘tkazishda qo‘llaniladigan tahlil turlari

Tahlil turi	Maqsad
Ilmiy-texnik tahlil	Ilmiy-texnik faoliyat natijalarini aniqlash
Huquqiy tahlil	Har bir aniqlangan IFN ga huquq egasini belgilash
Iqtisodiy tahlil	IFN ni tijoratlashtirish istiqbollari va tijoriy qiymatini hamda ularga bo‘lgan huquqlarni baholash

Tadqiqot davomida dissertatsiya muallifi amalga oshirgan ilmiy izlanishlar va o‘rganishlar asosida shunday xulosaga kildikki, bunga ko‘ra hozirgi kunlarda sanoat korxonalarida qo‘llanilib kelinayotgan o‘z ichiga IFN vani tijoratlashtirish istiqbollari va ularning tijorat nuqtai-nazaridan qimmatligini hamda ularga bo‘lgan huquqlarning baholanishini oladigan iqtisodiy tahlil bunday ilmiy-texnik ishlanmalarga bozorda talab mavjudligini tahlil qilish pozitsiyasidan turib kuchaytirilmog‘i lozimdir. Bundan tashqari, jarayonli innovatsiyalar mavjudligi vaziyatlarida bunday ilmiy-texnik ishlanmalarning sanoat korxonasida joriy etilishining ratsionalligini baholash ham talab etiladi.

Ko‘rib turibmizki, sanoat korxonalarining innovatsion rivojlanish loyihalarini amalga oshirishda ularning intellektual faoliyati natijalarini aniqlash va ulardan foydalanishning imkoniyatlari kattadir. Bu imkoniyatlardan foydalanish tajribasi mintaqa sanoat korxonalarida hali unchalik rivojlanmaganligini e‘tiborga olib, mazkur tadqiqot ishi doirasida biz taklif qilgan mexanizmdan foydalanish mintaqa sanoatining innovatsion rivojlanish jarayonlari samaradorligini oshirishga, yakuniy hisobda esa mintaqa iqtisodiyotining ijtimoiy-iqtisodiy o‘sish darajasi jadallashishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Калмуратов Б.С. Стратегия развития инновационного управления промышленного комплекса Республики Каракалпакстан. International Scientific Journal Theoretical & Applied Science Philadelphia, USA Issue 01, volume 91 published January 31, 2021. 379-387 стр
2. Калмуратов Бахтияр Сейтмуратович, Бектурдиев Максет Бекбергенович ФОРМИРОВАНИЕ ИННОВАЦИОННОЙ СТРАТЕГИИ РАЗВИТИЯ В КОНКУРЕНТНОЙ СРЕДЕ СТРОИТЕЛЬНОЙ ИНДУСТРИИ // Бюллетень науки и практики. 2021. №6. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/formirovanie-innovatsionnoy-strategii-razvitiya-v-konkurentnoy-srede-stroitelnoy-industrii> (дата обращения: 07.03.2024).
3. The current state of innovative development of the construction industry of the republic of Uzbekistan. ISJ Theoretical & Applied Science,(02 (82)), 455-463
4. Kalmuratov, B. S. (2021). Development strategy of an innovative management of the industrial complex of the Republic of Karakalpakstan. ISJ Theoretical & Applied Science, 01 (93), 379-387. Soi: <http://s-o-i.org/1.1/TAS-01-93-66> Doi: <https://dx.doi.org/10.15863/TAS.2021.01.93.66>
5. Калмуратов Б.С. Стратегия развития инновационного управления промышленного комплекса Республики Каракалпакстан. International Scientific Journal Theoretical & Applied Science Philadelphia, USA Issue 01, volume 91 published January 31, 2021. 379-387 стр
6. Калмуратов Б. С. Совершенствование инновационной инфраструктуры промышленности региона путем кластеризаций// Iqtisodiyot va ta'lim // 2022-yil 2-son. 68-372
7. Қалмуратов Б. С. Қорақалпоғистонда саноат ишлаб чиқариш соҳасининг ривожланиш тенденциялари//“Жамият ва бошқарув” журнали// Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси №2(100) 2023